



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATI VA UNING ASOSIY MAZMUNI

Jumaniyazova Intizor To‘lkinovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid siyosatning ustuvor yo‘nalishlari tahlil etilgan. Unda mustaqil jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati keng yoritilgan. Shu bilan birga, mutafakkirlar merosida aks etgan komil inson g‘oyasining tarixiy va falsafiy talqini alohida ko‘rib chiqilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida barkamol avlodni voyaga yetkazishning ma‘naviy hamda huquqiy asoslari ham to‘laqonli ravishda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston,siyosati, iqtidorli yoshlar, ma‘naviy barkamollik, uchinchi Renessans.

МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ ОСНОВНОЕ СОДЕРЖАНИЕ

Жуманиязова Интизора Толкиновна

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни,исследователь

Аннотация

В данной статье анализируются приоритетные направления молодежной политики в Новом Узбекистане. Широко освещается важность совершенствования правовой культуры в воспитании молодежи в независимом обществе. Одновременно отдельно рассматривается историко-философская интерпретация идеи совершенной личности, отраженная в наследии мыслителей. Также подробно раскрываются духовно-правовые основы воспитания совершенного поколения в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, политика, талантливая молодежь, духовное совершенство, Третий Ренессанс.

YOUTH POLICY IN NEW UZBEKISTAN AND ITS MAIN CONTENT

Jumaniyazova Intizor To‘lkinovna

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, researcher

Abstract

This article analyzes the priority areas of youth policy in New Uzbekistan. It broadly covers the importance of improving legal culture in the education of youth in an independent society. At the same time, the historical and philosophical interpretation of the idea of a perfect person, reflected in the heritage of thinkers, is separately considered. The spiritual and legal foundations of raising a perfect generation in the conditions of New Uzbekistan are also fully revealed.

Keywords: New Uzbekistan, policy, talented youth, spiritual perfection, third Renaissance.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat yoshlarida mustaqil faoliyat, yangi zamonga mos ravishda ijtimoiy-ma‘naviy hislatlarni, xususan, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda muhim ahamiyat kasb etadigan milliy o‘zlikni anglashning amaliy asosini tashkil qiladi. Uning shu yo‘nalishdagi mohiyati siyosatshunoslik fanlari doktori S.A.Jo‘raevning yoshlar davlat siyosatining ta‘rifida ochib berilgan: «Yoshlar siyosati bu jismonan va ruhan sog‘lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a‘zosi, uyg‘un rivojlangan shaxs sifatida yetishib chiqish jarayonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy- huquqiy, madaniy-ma‘naviy shart-sharoitlar majmuini yaratish sari maqsadli yo‘nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo‘lidir» [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Sharq Renessans mutafakkirlarining asarlari hamda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan huquqiy-normativ hujjatlar mazkur tadqiqot uchun muhim nazariy-metodologik asos va yo‘riqnoma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari,

shuningdek analiz va sintez usullari hamda kompleks yondashuvdan foydalanildi.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [2], deya alohida ta'kidlagan.

Shuni e'tibor bilan ta'kidlash kerakki, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati ham aynan yoshlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan, 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun [3] edi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, demokratik davlat barpo etish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini kuchaytirish muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega, keng dunyoqarashli va chuqur bilimli vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlarini egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish ham ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Bundan tashqari, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy hamda intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish muhimdir. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish ham dolzarb vazifalardan biridir. Shu jarayonda ommaviy axborot vositalari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Iste'dodli yoshlarni aniqlash va tarbiyalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani mamlakatimizda boy tajriba to'planishiga xizmat qildi. Bu borada nafaqat davlat tashkilotlari, balki nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport va tadbirkorlik sohalarida iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ularning ilg'or tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ushbu yo'nalishdagi eng dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Yoshlar masalasini o'rganish kishilik jamiyati, ijtimoiy munosabatlar, millatlar va davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Chunki yoshlar masalasi, birinchidan, sivilizatsiya vujudga kelgandan beri mavjud va barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida ham ular bilan yonmayon keladi. Ikkinchidan, tafakkur tarixida barcha faylasuflar, mutafakkirlar, davlat arboblari, shoiru adiblar farzand, yoshlar masalasiga oid o'z qarashlarini bayon qilganlar.

Qadimgi Arabiston yarim orolida VII asrgacha – «johiliya davri»da [4], hatto qiz bolaning tug'ilishi ota uchun baxtsizlik alomati bo'lsa, o'g'il bolaning tug'ilishi esa, alohida baxtning belgisi qilib ko'rsatilgan. Hikoya qilishlaricha, Umar ibn alXattob (r.a.) quyidagilarni e'tirof etgan: «Musulmonlikdan avvalgi ikki narsani eslaymanki, birini eslab yig'layman, birini eslab kulaman. Ushbu narsaga yig'layman. Bir kun qizimni, jajji qizchamni, jigarpora qizchamni shu o'z qo'llarim bilan qabr qazib ko'mdim. Men qizim uchun o'z qo'llarim bilan chuqur qazir ekanman, u mening soqolimga sachragan tuproqlarni jajji qo'llari ila silab olardi. Qachon buni eslasam doimo yig'layman. Insoniyatning qanday qorong'u davrlarida yashaganini tushunib, tinmay ko'z yosh to'kishdan o'zimni tiyaman» [5].

Tadqiqotchi N.J.Yusupova o'zining "Islomda ayol huquqlari" asarida ta'kidlaganidek, ayol masalasiga oid Qur'oni karimda 309 oyat mavjud bo'lib, shundan 161 oyat Makkada va 148 oyat Madinada nozil bo'lgan [6].

Inson kamoloti, eng avvalo, uning erkin fikrlashi, tafakkuri va amaliy harakatlarini anglay olishida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, qadimgi yunon faylasufi Suqrotning "O'zligingni angla" degan da'vati ham insonni o'z kelib chiqishi, hayotining ma'nosi hamda kelajak avlodlar oldidagi burch va mas'uliyatini tushunishga undaydi. Har qanday jamiyatda komillik darajasi insonning ezgulikka, jamiyat farovonligiga va insonparvarlik g'oyalariga bo'lgan munosabati hamda ularni amalda ro'yobga chiqarishida ko'zga tashlanadi. Afsuski, so'nggi yillarda ayrim yoshlar orasida Vatan va millat ravnaqi uchun xizmat qilish, mustaqillikni mustahkamlash yo'lida foydali inson bo'lib yetishish tuyg'usi yetarli darajada ilmiy asosda shakllantirilmayapti. Natijada, ayrimlarda shaxsiy manfaatni ustun qo'yish, oson yo'llar bilan farovon hayotga erishishga intilish kabi holatlar kuzatilmoqda. Shuningdek, ba'zi kishilar orasida ma'naviy qashshoqlik, tor dunyoqarash, milliy odob-axloq qoidalariga amal qilmaslik, so'z va ish birligining yo'qligi, milliy g'ururning sustligi hamda "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlari

uchramoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratiya tamoyillariga tayanadi. U yerda tinchlik, taraqqiyot, inson huquqlari va erkinliklari, millatlararo va dinlararo totuvlik ustuvor ahamiyatga ega. Ana shunday tamoyillar asosida shakllangan ezgu g'oyalar butun insoniyat manfaatlariga xizmat qilib, yorqin kelajak sari yetaklaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida ta'kidlab o'tganidek, "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar" [7].

XULOSA

Har qanday davlatning qudratini, salohiyatini, kuchini belgilaydigan asosiy omillardan biri, shubhasiz, ma'naviy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish hisoblanadi. Shu ma'noda, bugungi kunda bizning mustaqil davlatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash qanchalik muhim, mas'uliyatli vazifa ekani barchamizga ayon.

Mamlakat yoshlariga, bolalariga e'tibor, albatta, kelajakka qilingan sarmoyadir. Kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish farzandlarimizning faol ishtiroki, qo'llab-quvvatlashi orqaligina to'laqonli amalga oshar ekan, ma'naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan o'g'il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ham ta'minlashiga zamin yaratadi. Bizning tariximizda Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar bo'lganligi, ularning asarlari jahon fani va madaniyatida munosib o'rin egallaganligi bilan cheksiz faxrlanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жураев С.А. Особенности формирования государственной молодежной политики Республики Узбекистан в переходный период: теория и практика. А- р.дисс...док.политол.н.-Т., 1994. -С.17.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев БМТнинг 72-сессиясида сўзлаган нутқи // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
3. 2016 йил 14 сентябрдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги Қонун / <https://lex.uz/docs/3026246>
4. Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк ислом. Жоҳилия асри. Т.: Тошкент ислом университети, 2001. Б.11
5. Ҳикматлар хазинаси. Т.: Фафур Фулом, 1993. Б.69
6. Юсупова Н.Ж. Исломда аёл ҳуқуқлари. Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги академияси, 2006
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ёшлари форумидаги маърузаси // https://uza.uz/uz/posts/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-uzbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662